

talabalarda, balki gidlar, mehmonxona xodimlari, turoperatorlar va mahalliy tadbirkorlarda ekologik mas'uliyatni oshiradi.

Beshinchidan, turizmning ekologik ta'sirini baholovchi milliy monitoring tizimini yaratish lozim. Ushbu tizim turist boshiga to'g'ri keladigan suv iste'moli, energiya sarfi, chiqindi hajmi, karbon izi va ekologik sertifikatlangan obyektlar ulushi kabi indikatorlarni muntazam hisoblab borishi kerak.

Oltinchidan, mahalliy aholini yashil turizm loyihalariga faol jalb etish zarur. Chunki xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mahalliy jamoalar manfaatdor bo'lmagan hududlarda turizmning barqarorligi ta'minlanmaydi. Shu sababli oilaviy mehmon uylari, ekologik fermer xo'jaliklari, hunarmandchilik markazlari va mahalliy gidlik xizmatlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Yettinchidan, Orolbo'yi hududida "yashil innovatsion turizm klasteri"ni shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu hudud ekologik turizm, ilmiy turizm, iqlim turizmi va ekologik ta'lim markazi sifatida rivojlantirilishi mumkin. Natijada ekologik muammo iqtisodiy imkoniyatga aylantiriladi. Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha hukumat qarori mavjud, shu bois amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

***Sirojiddin XALILOV, Alfraganus universiteti,
"Xalqaro turizm menejmenti" kafedrasini mudiri, professor***

TURIZM SOHASIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING STRATEGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu tezis turizm sohasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning strategik aspektlarini umumlashtirishga bag'ishlangan. Ishda milliy turizm tarmog'ini diversifikatsiyalash strategiyasining tarkibiy tuzilishiga oid konseptual yondashuv asoslangan. Shu bilan birga, O'zbekiston milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini rivojlantirish yuzasidan takliflar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish, strategiya, diversifikatsiya.

Аннотация. Данный тезис посвящен обобщению стратегических аспектов обеспечения устойчивого экономического роста в секторе туризма. Работа основана на концептуальном подходе к структуре стратегии диверсификации национальной туристической отрасли. Одновременно разработаны предложения по развитию конкурентных преимуществ национальной туристической отрасли Узбекистана.

Ключевые слова: туризм, устойчивое развитие, экономический рост, стратегия, диверсификация.

Abstract. This thesis summarizes the strategic aspects of ensuring sustainable economic growth in the tourism sector. The work is based on a conceptual approach to the structure of a national tourism industry diversification strategy. Concurrently, proposals for developing the competitive advantages of Uzbekistan's national tourism industry are developed.

Keywords: tourism, sustainable development, economic growth, strategy, diversification.

Global xizmatlar bozoridagi konyunktura o'zgarishlari va vaziyatli tahlil xulosalari asosida milliy turizm tarmog'ini diversifikatsiya qilish strategiyasi tanlanadi. O'z o'rnida ta'kidlash joizki, milliy turizm tarmog'ini diversifikatsiyalash strategiyasining ro'yobga chiqarilishi bir nechta jarayonlar bilan chambarchas bog'liqlikda va uyg'un kechishi lozim. Ular quyidagilardan iborat:

- turizm tarmog'i infratuzilmasini modernizatsiyalash;
- turizm tarmog'i uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;
- turizm tarmog'iga investitsiyalar jalb qilinishini rag'batlantirish;
- turizm tarmog'ida biznes subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish;
- turizm tarmog'ida sog'lom raqobat uchun maqbul sharoitni vujudga keltirish;
- turizm tarmog'ida xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;
- turizm tarmog'ini tartibga solishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish.

Turizm tarmog'i infratuzilmasini modernizatsiyalashda diqqat turistlarga qo'shimcha qulayliklar yaratuvchi sohalarga qaratiladi. Ular sirasiga aeroportlar, temir yo'l va avtovokzallar, infokiosklar, valyuta ayirboshlash shoxobchalari, kommunal sohalar mansub. Turizm tarmog'i uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash esa oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, maxsus o'quv kurslarida amalga oshiriladi. Turistlar bilan bevosita muloqot qilish orqali faoliyat yurituvchi gidlar, instruktorlar, turagentlar, mehmonxona menejerlari, restoran servisi personalining yuksak kasbiy kompetensiya va samarali kommunikatsiya ko'nikmalarini o'zlashtirgan bo'lishiga to'g'ri keladi. Turizm tarmog'iga investitsiyalar jalb qilinishi texnik-iqtisodiy asoslangan loyihalar taqdimotini uyushtirish, B2B (business to business), B2G (business to government) formatlarida investitsiya forumlarini o'tkazish, potensial investorlar uchun muntazam info-turlar tashkil qilish orqali qo'llab-quvvatlanadi. Turizm tarmog'ida biznes subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhiti iqtisodiy preferensiyalarni adolatli taqsimlash, davlat xaridlari, tenderlarda ochiqlik va barcha bozor ishtirokchilari uchun teng sharoitlarni ta'minlash, monopoliyaga qarshi murosasiz kurashish, sog'lom raqobat vositalaridan foydalanilishini rag'batlantirish evaziga yaratiladi. Turizm tarmog'ida xalqaro hamkorlik strategik sheriklik munosabatlari o'rnatilgan davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p qirrali aloqalarni chuqurlashtirish, eksport-import operatsiyalarini o'zaro manfaatli tartibga solish negizida mustahkamlanadi.

Milliy turizm tarmog'ida diversifikatsiya strategiyasining amalga oshirilishi tashqi bozorlarda turizm mahsulotlari sotuvini jadallashtiradi va raqobatchi subyektlarning takliflar portfelidan ustun mavqeni qo'lga kiritish imkonini beradi. Buning uchun milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini aniqlab olish va ularni targ'ibot kampaniyasi davomida ta'kidlab ko'rsatish lozim. Potensial turistlar ongida ijobiy taassurot uyg'otish va mustahkam o'rin egallash keyinchalik xarid tanlovi chog'ida yakuniy qaror qabul qilinishiga ta'sir etadi.

Ichki tuzilmasida komponentlar uyg'un strategik maqsad yo'lida o'zaro muvofiqlikka ega bo'lsagina, har qanday strategiya ko'zlangan natijalarga erishish

kafolatini yaratadi. Milliy turizm tarmog'ini diversifikatsiyalash strategiyasi o'z tarkibida quyidagi asosiy bandlarni jamlaydi:

I. Turizmning maxsus turlari bo'yicha O'zbekiston milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini rivojlantirish.

1.1. O'zbekistonga tarixiy-madaniy va ziyorat turizmi maqsadlarini ko'zlagan holda kiruvchi turistik oqimni barqaror jalb qilish.

1.2. O'zbekistonning agro-, ekologik, ekstremal va tog' turizmi yo'nalishlarida salohiyatini to'la yuzaga chiqarish.

1.3. Gastronomik, rekreatsion, MICE turlar ishlab chiqilishi va faol targ'ib qilinishini tashkillashtirish.

II. Kiruvchi va ichki turistik oqimning mintaqalararo mutanosib taqsimlanishiga erishish.

2.1. Turizm resurslari va rekreatsion sig'imkorligidan kelib chiqqan holda hududlarning ixtisoslashuvini ta'minlash.

2.2. An'anaviy turistik attraksiya markazlariga muqobil ravishda yangi tematik turistik zonalar barpo qilish.

2.3. Hududlarga rekreatsion yuklama ortib ketishining oldini olishni nazarda tutib, radial turmarshrutlar uchun transport ta'minotini shay holga keltirish.

III. Yangi sotuv bozorlariga kirib borish orqali turistik xizmatlar eksportini oshirish.

3.1. Milliy turizm tarmog'ining bozor ulushini kengaytirish maqsadida yangi segmentlarni qamrab olish.

3.2. Turistik xizmatlarning potensial importyorlari uchun ixtisoslashgan ko'rgazmalar uyushtirish.

3.3. Milliy turizm tarmog'i uchun yuqori ijtimoiy-iqtisodiy naf keltiruvchi davlatlar bilan turistik xizmatlar tashqi savdosini rivojlantirishga qaratilgan "yo'l xaritalari"ni tasdiqlash.

IV. Milliy turizm brendining targ'ibot kampaniyasini samarali boshqarish.

4.1. Milliy turizm brendi targ'ibot kampaniyasining yillik byudjetini tasdiqlash amaliyotini joriy qilish.

4.2. Milliy turizm brendi targ'ibot kampaniyasiga yo'naltirilgan moliyaviy transhlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashni yo'lga qo'yish.

4.3. Milliy turizm brendi targ'ibot kampaniyasiga ajratilgan resurslarning maqsadli sarflanishi ustidan tizimlashgan nazorat o'rnatish.

Diversifikatsiyalash strategiyasi birinchi bandi turizmning maxsus turlari bo'yicha O'zbekiston milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini rivojlantirishga bag'ishlanadi. Birinchi band O'zbekistonga tarixiy-madaniy va ziyorat turizmi maqsadlarini ko'zlagan holda kiruvchi turistik oqimni barqaror jalb qilish, O'zbekistonning agro-, ekologik, ekstremal va tog' turizmi yo'nalishlarida salohiyatini to'la yuzaga chiqarish, gastronomik, rekreatsion, MICE turlar ishlab chiqilishi va faol targ'ib qilinishini tashkillashtirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Qayd etish o'rinliki, diversifikatsiyalash strategiyasi birinchi bandi o'rta va uzoq istiqboldagi rivojlanishning asosiy vektorlarini aks ettiradi. Mos ravishda, diversifikatsiyalash strategiyasi ikkinchi bandining ijrosi kiruvchi va ichki turistik oqimning mintaqalararo mutanosib taqsimlanishiga erishish yo'llariga qaratilgan.

Ikkinchi band turizm resurslari va rekreatsion sig'imgorligidan kelib chiqqan holda hududlarning ixtisoslashuvini ta'minlash, an'anaviy turistik attraksiya markazlariga muqobil ravishda yangi tematik turistik zonalar barpo qilish, hududlarga rekreatsion yuklama ortib ketishining oldini olishni nazarda tutib, radial turmarshrutlar uchun transport ta'minotini shay holga keltirish yo'nalishlarini qamrab oladi. Ta'kidlash joizki, diversifikatsiyalash strategiyasi ikkinchi bandining bajarilishi turistik destinatsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf qilishga xizmat qiladi. Xuddi shunday, diversifikatsiyalash strategiyasining uchinchi va to'rtinchi bandlari ham dolzarb masalalarni o'zida ifodalaydi.

Milliy turizm tarmog'ida diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish turistik jozibadorlikka ega hududlarda maqbul infratuzilmani tashkil etish orqali ekstremal va tog' turizmini rivojlantirishning qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlashni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yadi. Ta'kidlash joizki, turistik jozibadorlikka ega hududlarda maqbul infratuzilmani tashkil etish orqali ekstremal va tog' turizmini rivojlantirishning qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlash pirovard natijada milliy turizm tarmog'ini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston o'z tarkibida turistik salohiyati yuqori bo'lgan tog'li va tog'oldi hududlariga ega. Ularda musaffo tabiatdan bahramand bo'lish, noyob o'simlik va hayvonot olami vakillarini tomosha qilish, qishloqning sof mahsulotlarini ta'tib ko'rish, manzarali joylarga tashrif buyurish, dam olish maskanlarida mazmunli vaqt o'tkazish, faol hordiq chiqarishga sharoit tug'diruvchi mashg'ulotlar bilan, xususan paraglayding, rouppjamping, karavanning, kanoing, rafting bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud. Kiruvchi va ichki turistik oqimni jalb qilish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan mahalliy turoperatorlik kompaniyalari innovatsion tavsifga ega turmarshrut sifatida tog'li va tog'oldi hududlariga sayohatni taklif etishi mumkin. Bunda ekstremal va tog' turizmi marshrutlari boshqa alternativ yo'nalishlar bilan kombinatsiyada taqdim etilishi yanada samarali bo'ladi. Agro-, eko-, rekreatsion, gastronomik, etnografik turizm yo'nalishlarini ekstremal-tog' turizmi marshrutlari bilan kombinatsiyalash shular sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alonso, A.D., & Ogle, A. (2019). Tourism and hospitality small and medium enterprises and environmental sustainability. Management Research Review. Spain, Madrid – Science publisher, 46-59.
2. Aminian, A. (2018). Environmental performance measurement of tourism accommodations in the pilgrimage urban areas: The case of the Holy City of Mashhad, Iran. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 35, 514–522.
3. Travel & tourism global economic impact & issues 2025 // World travel & tourism council, United Kingdom, 2026.
4. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi.
5. www.wto.org – Butunjahon turizm tashkiloti rasmiy sayti.
6. www.uzbektourism.uz – O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy sayti.